

MILLIYLIKNI TARJIMASHUNOSLIK FANINING TADQIQOT  
OBYEKTI SIFATIDA O‘RGANISH MASALALARI

Umidbek Saidov Shavkat o‘g‘li  
Toshkent davlat sharqshunoslik  
universitetining tayanch doktoranti  
E-mail: [sasisuseso@mail.ru](mailto:sasisuseso@mail.ru)

*Annotatsiya:* Zamonaviy o‘zbek tarjimashunosligida badiiy tarjimalar bilan bog‘liq tadqiqotlarda milliylik masalasi markaziy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu masala doktorlik dissertatsiyalari darajasida o‘rganilayotganiga qaramasdan milliylik masalasi ilmiy tadqiqot obyekti sifatida, hozirga qadar, ilmiy izohlanmagan. Uning tarkibiy qismlari va tadqiqot metodlari aniq qilib ifodalanmagan. Ushbu maqola esa, mana shu chaqiruvga nisbatan bir javob desak mubolag‘a bo‘lmas.

*Kalit so‘zlar:* millat, natio, национальность, etnos, etos, etika, milliylik.

Hozirgi kunda o‘zbek tarjimashunosligida “milliylik” masalasi keng o‘rganib kelinmoqda. Misol tariqasida madaniy kesishuvlardagi milliylik masalasiga birinchilardan bo‘lib e’tibor qaratgan olim Xayrullo Xomidovning “O‘zbek qissa va romanlarining turkcha tarjimalarida milliylik, badiiylik va lisoniy adekvatlik masalalari” nomli DSc dissertatsiyasini ko‘rsatish mumkin.[1] Shuningdek, Abdullayeva Marhaboning “Milliy koloritni ifodalovchi frazeologizimlar tarajimasi muammolari (Agata Kristining asarlari tarjimasi misolida)”[2], Buranova Barnoning “Badiiy tarjimada tarixiy – milliy koloritni saqlash prinsiplari “yulduzli tunlar” romanining turkman tilidagi na’munasi asosida”[3], Umarova Mohiraning “XX asr nasri na’munalarining urdu tilidagi tarjimalarida milliy koloritning ifodalanishi”[4], Teshaboyeva Ziyodaxonning [“Boburnoma”ning inglizcha tarjimalaridagi frazeologik birliklar va ularning milliy – madaniy xususiyatlari](#)”[5], Shamsiyeva Barnoxonning “Tarjima matni madaniyat transferi sifatida (Natsume Soseking “qalb” asari asosida”[6], Murodova Durdonaning “Pak Vanso romanlarida millat muammosining badiiy talqini”[7], Jo Min Yongning “O‘zbek va koreys tillarida o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi”[8], Sadriddinova Safiya Axobiddinovnaning “Demonologik leksikaning semantik xususiyatlari va pragma – madaniy vazifalari (ingliz, o‘zbek va rus adabiyoti asosida)”[9] kabilarni keltirib o‘tish mumkin.

Yuqoridagi tadqiqotlardan ko‘rinib turibdiki, milliylikni tarjimashunoslik ilmiy obyekti sifatida o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy o‘zbek tarjimashunosligida milliylik masalasi doktorlik dissertatsiyalari darajasida o‘rganilyotgani asli haqiqat. Shunga ham qaramasdan, to‘laqonlik tadqiqot obyekti sifatida qabul qilib bo‘lmaydi degan fikrlar ham aytilmoqda. Millat va shu bilan bog‘liq barcha g‘oyalar shunchaki siyosatning mahsuli, unda ilmiy asos mavjud emas degan fikrlar ham yo‘q emas. Va tabiiyki savol paydo bo‘ladi, zamonaviy

o‘zbek tarjimashunoslik maktabida shakillanib borayotgan “milliylik” tushunchasi ilmiy tadqiqot obyekti sifatida to‘laqonli asoslarga egami yoki shunchaki siyosiy intilishlar mahsulimi? Mana shu savolga uzil – kesil javob topish hozirga qadar amalga oshirilgan va bundan so‘ng amalga oshiriladigan ilmiy ishlarni qiymatini belgilab berishini hisobga oladigan bo‘lsak, bu mavzuni yoritish va ochiq muhokamaga qo‘yish nechog‘liq muhim va zarur ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Demak, “milliylik” – to‘laqonlik tadqiqot obyektini yoki yo‘q degan savolga aniq javob topish uchun avval bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalarni belgilab olsak.

birinchidan, “millat” degan tushunchaga ilmiy izoh berish;

ikkinchidan, “millat” degan tushunchadan kelib chiqqan holda “milliylik” degan tushunchani asoslarini belgilab olish;

uchinchidan, “milliylik” deb hisoblasa bo‘ladigan kategoriyalarni aniqlash,

to‘rtinchidan, “milliylik” zamonaviy tarjimashunoslikning qaysi nazariyasi doirasida o‘rganib chiqsa bo‘ladigan obyekt ekanligini aniqlash;

beshinchidan, “milliylik”ni ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rgansa bo‘ladigan metodologiyalarni aniqlash.

Mana shu masalalarga aniqlik kiritib olganimizdan so‘ng biz “milliylik” tarjimashunoslik doirasida ilmiy obyekt sifatida o‘rgansa bo‘ladimi yoki yo‘q degan savolga aniq javob topa olgan bo‘lamiz.

Avval “millat” degan tushunchaga ilmiy aniqlik kiritib olsak. Bu sohada katta yutuqlarga erishgan jamiyatshunoslik fani natijalaridan foydalansak bo‘ladi. Buning uchun manba sifatida rus jamiyatshunos olimlari G.V. Osipovning “Российская социологическая энциклопедия” va A.G. Duginning “Этносоциология” degan adabiyotlaridan foydalanamiz. Nima uchun aynan rus olimlari degan e’tirozlar bo‘lishi tabiiy. Bunday e’tirozlarga javoban, yangi o‘zbek tilida mavjud “milliylik” tushunchasi rus tilidagi “национальность” tushunchasining tarjimasini sifatida kirib kelganini hisobga oladigan bo‘lsak, aynan rus olimlari izohidan siljishimiz obyektivlik prinsipiga mos ish ekanligi ma’lum bo‘ladi. Boshqa bir sababi esa, bizda mavjud tarjimashunoslikka oid ko‘pgina ilmiy asarlarning asosi, aniqrog‘i 60 foizi rus tilida yozilgan manbalarda ekanligida.[11]

“Milliylik” ya’ni “национальность” tushunchasini G.Osipov bunday izohlaydi: ““национальность” lotinchada “natio” degan asosga ega bo‘lib, (xalq) ma’nosini beradi. “natio” (xalq) degan so‘z esa tabaqalashgan jamiyatlarga xos bo‘lgan “ethnos”ning bir turi”. [16]

E’tibor bering, “natio” degan so‘z bizni boshqa bir termin “ethnos”ga yo‘naltiryapti. Va aynan mana shu “ethnos” degan atamani mohiyatini tushinish bizga “milliylik” nima degan savolimizga kalit bo‘lib bera oladi.

“Etnos” degan atamaning ma’nosini tushinishda bizga Duginning “Этносоциология” degan monografiyasi yordam beradi. Dugin o‘z monografiyasida yozishicha, “etnos” qadim yunonchadan “xalq” degan ma’noni ifodalaydi.[12] Ammo, savol paydo bo‘ladi, “xalq” qadim yunonchada “demos” emasmi? Ushbu o‘rinli savolga, Dugin monografiyani o‘zidayoq javob berib o‘tadi. Duginga ko‘ra, qadim yunonlarda “xalq” ma’nosini beruvchi 4ta so‘z mavjud bo‘lgan – “etnos”, “fyule”, “demos, “laos”. Va bu so‘zlarning har birida o‘ziga xos mazmun borligini ham aytib o‘tgan.[12] U “xalq” ma’nosini beruvchi 4ta so‘zdan biri “etnos”ga shunday izoh bergan:

Etnos – xalq tushunchasini beradigan atamalardan biri bo‘lib, keyinchalik ilmiy termiga o‘zgargan. Etnos yunoncha “etos”ga yaqin so‘z bo‘lib, “etika” so‘zi ham shu so‘zdan yasalgan. Etos – “dunyo qarash”, “xulq”, “odob” kabi ma’nolarni anglatadi. Etika esa odob so‘zining sinonimi hisoblanadi. Etnos va etos bir ildizli so‘zlar bo‘lib, qishloq yoki aholi turar joyi ham ifodalagan. Aynan qishloq turkumidagi aholi turar joyi nazarda tutilyapti, shahar emas. Sababi shahar – “polis” deb atalgan va “politika” degan so‘zining asosi hisoblanadi”.[12] Izohdan so‘ng Dugin “etnos” atamasini yana ham chuqurroq tushintirish maqsadida, rus jamiyatshunosligining asoschisi bo‘lmish S.M. Shirokogorovdan iqtibos keltiradi. Shirokogorovning izohiga ko‘ra “etnos – a) bir tilda gapiruvchi, b) kelib chiqish tarixini yagona ekanligini tan oluvchi, d) boshqalardan ajratib turuvchi umumiy odatlari, turmush tarzi, an’analariga ega insonlar guruhi nazarda tutiladi”. [12] Shirokogorovni fikridan so‘ng, Dugin quyidagi xulosani keltirib o‘tgan.

“Shunday qilib, dunyo qarash, odob – etnosning ahamiyatli asoslaridan biridir. Etnos tushunchasi, dunyo qarashlar birligi va odob – axloqni baholashdagi hamohanglik kabi asoslarda ifodalangan bo‘ladi”.[12]

Shirokogorov va Duginlarning fikrlarini xulosa qiladigan bo‘lsak, “etnos” degan atamani belgilab beruvchi asosiy 4ta kategoriya ma’lum bo‘lyapti:

1. til birligi<sup>1</sup>;
2. kelib chiqishining birligi;
3. dunyo qarash birligi;
4. axloq va odobni baholash qadiryatlari birligi.

Lekin, “etnosni, natioga qanday aloqasi bor?” degan savol paydo bo‘ladi. To‘g‘ridan – tog‘ri aloqasi bor. Sababi, Osipovga ko‘ra “birinchi yevropadagi “natio”lar markaziydashgan davlatlar chegaralarida etnik bir – biriga yaqin bo‘lgan, bitta yoki bir qancha xalqlarning birlashuvi asosida paydo bo‘la boshlashgan”.[16]

Ya’ni, millat yoki natio – bitta yoki bir qancha etnoslarning yagona davlat hudud chegaralarida birlashgan shakli.

<sup>1</sup> “birlik” – bu yerda o‘xshashlik nazarda tutilyapti.

Millat tushunchasiga anqilik kiritib olganimizdan so‘ng, milliylik tushunchasini ham aniqlashtirib olsak.

Nazarimda, milliylikni bunday tariflasa bo‘ladi: “Milliylik – millat bilan bog‘liq madaniy hodisalarni nazarda tutgan tushuncha bo‘lib, biron davlat chegaralarida birlashgan bir tilda gapiruvchi, kelib chiqishi va e‘tiqodi umumiy bo‘lgan, umumiy qadiryatlarga ega bo‘lgan, odob – axloqni baholash mezonlari bir – biriga yaqin bo‘lgan xalqlar bilan bog‘liq madaniy hodisalarni nazarda tutadi”. Ushbu fikrimni asoslashni, o‘zbek tili izohli lug‘atida madaniyat so‘ziga berilgan izohdan boshlasam: “Biror ijtimoiy gruppasi, sinfi, yoki xalqning ma‘lum davrda qo‘lga kiritgan shunday yutuqlar darajasi. Dehqonchilik madaniyati, musiqa madaniyati, nutq madaniyati va h.k.z.”. [15] Keltirilgan izohdan xulosa, madaniyat – insonlarning yashash tarzi, urf – odatlari, san‘at, bilim, qonun va qadriyatlari kabi turli jihatlarni o‘z ichiga olgan ijtimoiy hodisalarni nazarda tutgan tushunchadir. Madaniyat – jamiyatning umumiy ma‘naviy va ijtimoiy tajribalarini, shuningdek, ularning estetik va intellektual faoliyatlarini ifodalaydi. Bu turli xalqlar va guruhlarining o‘ziga xosligini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shunday ekan zamonaviy o‘zbek tarjimashunosligida o‘rganilayotgan milliylik masalasi tarjima jarayonidagi madaniyatlar kesishuvini nazarda tutgan ilmiy asosga ega bo‘lgan tushunchadir. Buni biz, E. Ochilovning “Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da ko‘rishimiz mumkin. Unga ko‘ra: “Milliylik – har bir millatning boshqalardan ajralib turadigan, o‘zigagina xos xususiyatlari majmui. Ularni u yoki bu millatning ma‘naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o‘ziga xosliklar deb, ikkiga ajratib qarash mumkin.

Manaviy faoliyat, kishilarning xarakteri, tafakkur tarzi, ruhiyati, yumor xususiyatlari va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Moddiy hayot esa urf – odat, rasm – rusum, marosimlar, kiyimlar, uy – ro‘zg‘or anjomlari, pazandachilik, ismlar kabilardan iborat.

Har bir xalq muayyan muhit (vodiy, tog‘, sahro)da yashaydi. O‘zi hayot kechirayotgan joyning tabiatiga ko‘ra tirikchilik qiladi. Har yerning o‘z iqlimi, shunga muvofiq ravishda hayvonot va nabotot olami mavjud mavjud. O‘ziga xos xo‘jalik yuritish tarzi shakllangan, ishlab chiqarish sohalari rivojlangan. Yana har bir xalqning o‘z tarixi, dini, madaniyati, san‘ati, adabiyoti, urf – odati, rasm – rusumlari, an‘ana va qadiryatlari; kiyim – kechaklari, pazandachiligi va boshqalar bor. O‘z – o‘zidan, bularning barchasini ifodalaydigan so‘zlari, bu so‘zlar asosida vujudga kelgan iboralari bor. Bularning barchasi milliylik belgilari, uning tarkibiy qismlari hisoblanadi”. [14]

Yuqorida keltirilgan izohdan ko‘rinib turibdiki, “milliylik” deganda “madaniy” hodisalar nazarda tutilyapti.

Va yana, aytish joizki, E. Ochilov milliylikning 13ta tarkibiy qismlariga tarif berib o‘tgan:

1.Moddiy tirikchilik sharoitidan olinib, majoziy ma’noda ishlatiladigan xos so‘zlar;

2.Tarjimada kishi nomlari va laqablar;

3.Diniy istiholar, tushunchalar, marosimlar;

4.Ba’zi jug‘rofiy nomlar;

5.Taom nomlari

6.Cholg‘u asboblari

7.Kiyim – kechaklar

8.Adabiy terminlar

9.Toponimlar

10.Asarlarning nomi

11.Mehnat qurollari

12.Qush, hayvon va hashorat nomi

13.Mevalar nomi [14]

E. Ochilov, mana shu tarkibiy qismlar bilan tarjimada qanday ishlash kerakligi haqida tushuncha berib o‘tgan. Shunga yaqin yondashuvni N. Garbovskiyning “Теория перевода” nomli asarida ham ko‘rsak bo‘ladi.[10] Ammo, Ochilovdan farqli, M. Garbovskiy milliylik emas, etno – madaniy o‘ziga xosliklik degan atamadan foydalangan.

Lekin, E. Ochilov taklif qilgan madaniyat kategoriyasining tarkibiy qismlari palapartich va batafsil emasdek ta’surot uyg‘otadi. M. Garbovskiyda madaniyat kategoriyasining tarkibiy qismlarini tizimli tartiblash va tadqiqot jihatlari aniqlashtirish kabi muhim ishlar kuzatilmaydi. Shu sababdan, yuqorida keltirilgan tahlil va ma’lumotlar asosida ushbu ishga qo‘l urish majburiyatini his qildim.

Nazarimda, madaniyat kategoriyasining tarkibini tizimli tartiblash va jihatlarni belgilashda quyidagicha yo‘l tutsak bo‘ladi:

1. **muloqot tili va idiomatikalar** (lingvistik jihat);

2. **nutqda ifodalangan fikrlash tarzi** (lingvistik jihat).

3. **ijtimoiy unvon va munosabatlarning ifodalanishi;** (lingvistik jihat);

4. **urf – odat va an’analarning nomlanishi** (lingvistik jihat);

5. **bayram va marosimlarning nomlanishi** (lingvistik jihat);

6. **realiyalar** (lingvistik jihat);

7. **fito va zoomorfik kodlar** (lingvistik jihat);

8. **non verbal vositalar** (lingvistik jihat);

9. **toponimlar** (lingvistik jihat);

10.**etnonimlar** (lingvistik kategoriya);

11. **xulq** – **odobni baholash mezonlari** (ijtimoiy jihat);

12. **e’tiqod** (aqidaviy jihat).

Keltirilgan 12ta tarkibiy qismlariga e’tibor bersak asosan lingvistik jihatlardan iborat ekanligiga ko‘zimiz tushadi. Bu esa, milliylik bilan bog‘liq tadqiqotlar asosan lingistik tahliliy metodlar yordamida amalga oshiriladi degani.

Yuqorida keltirilganlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Dunyo tarjimashunosligida “etno – madaniy” deb yuritiladigan hodisalar zamonaviy o‘zbek tarjimashunosligida “milliylik” deb atala boshlangan. Ushbu tarifni birinchi bo‘lib G. Salomovning tadqiqotlarida uchratish mumkin;

2. Milliylik – tarjimashunoslik fanining to‘laqonlik ilmiy tadqiqot obyekti bo‘la oladi. Sababi, bu madaniy hodisalarni nazarda tutgan atama bo‘lib, tarjimashunoslik fanida ko‘p yillardan beri o‘rganilib kelinayotgani ma’lum faktdir;

3. Manbalarni tahlil qilish natijasida, madaniyat kategoriyasining 12ta tarkibiy qismini aniqlashning iloji bo‘ldi. Shu jarayonda a) lingvistik, b) ijtimoiy, d) aqidaviy jihatlarga ajratib olindi. Bu esa, tarjimashunoslikda o‘rganiladigan “milliylik” masalasi, asosan lingvistik tahliliy metodlar asosida amalga oshiriladi deganidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xayrulla Xomidov. “O‘zbek qissa va romanlarining turkcha tarjimalarida milliylik, badiiylik va lisoniy adekvatlik masalalari”. DSc dissertatsiyasi. Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021.
2. Barno Buranova. “Badiiy tarjimada tarixiy – milliy koloritni saqlash prinsiplari “Yulduzli tunlar” romaninig trukman tilidagi na’munasi asosida”. PhD dissertatsiyasi. Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2021.
3. Marhabo Abdullayeva. “Milliy koloritni ifodalovchi frazeologizimlar tarjimasi muammolari (agata Kristi asarlari tarjimasi misolida)”. PhD dissertatsiyasi. Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2023.
4. Mohira Umarova. “XX asr o‘zbek nasri na’munalarining urdu tilidagi tarjimalarida milliy koloritning ifodalanishi” – PhD dissertatsiyasi. Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2022.
5. Ziyoda Teshaboyeva. [“Boburnoma”ning inglizcha tarjimalaridagi frazeologik birliklar va ularning milliy – madaniy xususiyatlari](#)”. PhD dissertatsiyasi. Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2022.
6. Barno Shamsiyeva. “Tarjima matni madaniyat transferi sifatida “Natsume Sousekining “Qalb” asari asosida” PhD dissertatsiyasi. Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2022.
7. Durdona Murodova. “Pak Vanso romanlarida millat muammosining badiiy talqini”. PhD dissertatsiyasi. Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2023.

8. Jo Min Yong “O‘zbek va koreys tillarida o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi”. PhD dissertatsiyasi. Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2022.
9. Safiya Sadriddinzoda. “Demonologik leksikaning semantik xususiyatlari va pragma – madaniy vazifalari (ingliz, o‘zbek va rus adabiyoti asosida)”. PhD dissertatsiyasi. Toshkent: Samarqanq chet tillar instituti, 2022.
10. Nikolay Garbovskiy. “Теория перевода”. Akademik kurslar uchun darslik. – Moskva: Moskva davlat universiteti, 2007. – 532b.
11. G‘aybulla Salomov. “Tarjima nazariyasiga kirish”. Akademik kurslar uchun darslik. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2016. – 191b.
12. Aleksandr Dugin. “Этносоциология”. Ilmiy monografiya. – Moskva: Moskva davlat universiteti, 2011. – 412b.
13. G‘aybulla Salomov. “Til va tarjima”. Ilmiy monografiya. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2022. – 360b.
14. Ergash Ochilov. “Tarjimashunoqlikning nazariy masalalari”. Akademik kurslar uchun qo‘llanma. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2014. – 272b.
15. Madvaliyev A. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. 5 jildlik. 1 – jild. – Toshkent: O‘zbekiston nashiryoti, 2020 – 679b.
16. Gennadiy Osipov. “Социологический словарь”. 1 jildlik. 1 – jild. – Moskva: M.V. Lamanosov nomidagi Rossiya fanlar akademiyasi va Moskva davlat universiteti nashiryoti, 2010 – 608b.